

**UZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA URTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Xaitboyev D.J

Badiiy bezak san'ati asoslari
fanidan uslubiy qo'llanma

Tasviriy san'at va muxandislik
grafikasi yunalishi uchun

URGANCH - 2005 yil.

**UZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA URTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Xaitboyev D.J

Badiiy bezak san'ati asoslari
fanidan uslubiy qo'llanma

Tasviriy san'at va muxandislik
grafikasi yunalishi uchun

URGANCH - 2005 yil.

Ushbu badiiy bezak san'ati asoslari fanidan tayyorlangan ma'ruza matnlari Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi yunalishlari buyicha ta'lim olayotgan talabalar uchun muljallangan bulib,ma'ruza matnlarida shu fanning asosiy mavzulari yengil tilda kiskacha bayon kilingan.

Mas'ul muxarrir:p.f.n.dots. Ruziyev E.I

Takrizchilar: p.f.n. Rajabov R.
Katta ukituvchi Togonov R.

Al-Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat Universiteti ilmiy kengashining
«_____»_____2005 yildagi majlis karoriga muvofik nashrga tavsiya etildi.
(-sonli bayonnoma)

Mundarija

1. Maktabda badiiy bezash ishlarining mazmuni ,
maksad va vazifasi. _____
2. Badiiy bezash ishlarida kompozitsiya, rang va yoruglik
roli. _____
3. Shriftlardan badiiy bezash ishlarida
foydalanish, shriftlar kompozitsiyasi. _____
4. Maktabda badiiy bezash ishlarini tashkil kilishva amalga oshirish _____
5. Maktab interyeri va eksteryerini bezash. _____
6. Adabiyotlar ruyxati _____

**MAVZU: Maktabda badiiy bezash ishlarining mazmuni
maksad va vazifasi.**

R E J A :

1. Badiiy bezash ishlarining ahamiyati.
2. Maktabda badiiy bezash ishlarining asosiy yunalishlari.
3. badiiy bezash ishlarini takomillashtirib borish masalalari.

Tayanch suzlar:

Dekorativ san'at, san'at, Badiiy did, byust, kobiliyat.

Badiiy bezash ishlarining mazmuni, maksad va vazifasi.

Inson uchun zarur bilishlari miqyosida tobora kengayib, borayotgan hozirgi sharoitda ukuvchilarga uz bilimlarini mustakil ravishda tuldirib va boyitib borishni uzining diqqat e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarining eng muximlariga karatishni urgatish kerak. Bu vazifani ta'lim tarbiya jarayon bilan uzviy boglik xolda ukuvchilarning badiiy bezak ishlarini rivojlantirishni takozo etadi. Dekorativ san'atning kup turlari mehnat bilan omuxta bulib ketadi va ukuvchilardan ishga ijodiy munosabatini tarkib toptiradi.

Ular ma'naviy jihatdan boyitadi. Bu soxada ijod xayotning turli soxalarini, xar xil voqealarni tematik jihatdan tula kamrab olishi lozim.

Dekorativ san'atning maktab binosini bezatishga xizmat kiladigan asosiy yunalishlari-ukuv xonalarini, sport va majlislar zallarini, koridorlarni bezash, kurgazmalar tashkil kilish, dekorativ-amaliy san'at namunalarini yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va xakozolardan iboratdir.

Ukuvchi maktab binosiga karab, uning yonidagi uchstka, uyin va sport maydonchalariga karab, ulardagi guzallikni xis kilishi, maktab kiyofasi unda uzi bilan oladigan muxit xakida ijobiy tasavvur xosil kilishi lozim. Bunda did bilan ishlangan yulka va gulzorlar, kiraverishda unga (maktabga) nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, xar xil temalardagi stendlar, maktab binosining joylashishi tasvirlangan sxema va boshkalar katta yordam beradi. Maktab binosining xar bir kavatida kuyi urta va yukori.

Bunda ukuvchilarning jamoatchilik faoliyatiga xos xususiyatlarining xam nazarda tutish zarur.

Ukuvchi kunning ancha kismini maktabda utkazadi. Maktabdagi butun muxit uni guzallik konunlari asosida yashashga, xayotdagi rang barang xolatlarni kura bilishga urgatish kerak. Badiiy bezash ishlari san'atning bir necha turlari sifatida usib

kelayotgan insonga dunyoni tushunishda yordam beradi, uning yosh kalbiga ozik baxsh etadi, uni keng va turlicha fikrlashga odatlantiradi, xalkning ma'naviy madaniyatiga yakinlashtiradi, muximi mexnatga ijodkorlik bilan yondoshishga urgatadi. Xalkimizning mexnatdagi yutuklari, yurtimizning tarixiy utmishi, ilmiy va badiiy xayotidagi, ijtimoiy xayotdagi yangiliklar, maktabdagi xar bir mashg'ulot, ukuvchilar xayotidagi xar bir vokea dekorativ ijod uchun tema bulishi, badiiy bezash vositalari yordamida yorkin ifodalanishi va uz navbatida fantaziyani ustiradi.

Maktabdagi badiiy bezash ishlariga ukuvchilarni jalb etish muxim masaladir. Bu ish eng avvalo ukuvchilarning darsdan bush vaktlarini samarali tashkil etishda, ularni birgalashib ishlashga uz ishlarining natijasini tasavvur kilishga urgatishda katta yordam beradi. Kuyi sinf ukuvchilariga ota-onalari va murabbiylari uchun tabriknomalar, xar xil kurgazmalar, konkurslar tashkil etish ularning ijodiy kobiliyatini ustirishga yordam beradi.

Yukori sinf ukuvchilarining badiiy ijod soxasidagi ish doirasi kengayib boradi. Ular maktab uchun nakkoshlik, ganch va yogoch uymakorligi, mozeika, misgarlik va xakozolar buyicha xar xil ishlarni bajarib dekorativ-amaliy san'atning kengrok va murakkabrok turlarini uzlashtirib boradilar. Maktabda badiiy bezak ishlari yukori sinflardagi ukuvchilar bilan olib boriladigan goyaviy-tarbiyaviy ishning eng muxim maksadlarini amalga oshirishga, bolalarda ijtimoiy aktivlikni, ongni, intizomni, madaniy xulk shakllantirishga, estetik bilimlar doirasini kengaytirishga, badiiy kobiliyatni ustirishga xizmat kilishi kerak.

Ilgor maktablar tajribasidan kurinadiki, maktabdagi tabiiy bezash ishlarida stendlar va stendli kurgazmalar tayyorlash eng katta urin tutadi. Stendga juda kup va xar xil axborotlar sigishi sababli u maktab binosini va uning territoriyasini bezashda eng operativ element xisoblanadi. Stendli kurgazmalarning mavzulari va ma'suliyati turli tumandir.

Xar kanday metodik vazifa singari badiiy bezash ishlarini xam profissionallikka va ijodiy yondoshishga asoslanishi kerak. Professional aniklik ukuvchining badiiy izlanishlarini tugri va konstruktiv yunalishiga solsa, ijodiy yondoshish badiiy xulosalar chikarishga olib boradi.

Maktabda tabiiy bezak ishlarini tobora takomillashtirib borish estetik tarbiyaning tarkibiy kismi bulib, ukuvchilarning rassom-pedagog raxbarligida maktab muxitini kayta kurishni kengaytirishda ijodiy aktivlik kursatishlari yaanada muximdir.

San'at - kabul kilingan umumiy ma'nosi jixatidan ijodkor odam maxorati demakdir.

Byust - kishining belidan yukorisining tasviridir.

Dekorativ san'at - odamlar yashaydigan va ishlaydigan moddiy muxitni yaratadi, kishilarning amaliy extiyojlari va talablarini kondiradi, foydali narsani guzallik bilan moxirona kushib tasvirlash.

Badiiy did - tevarak-atrofdagi olamni uning kishida ma'lum bir ruxiy tuyogu paydo etuvchi guzalligi, yuksakligi e'tibori bilan idrok etish va baxolash kobiliyatidir.

Kobiliyat - kishining uz insoniy mexnati va kuchini erkin namoyon kila biladigan mexnati samarasi.

Nazorat savolari

1. Badiiy bezash ishlarining maksad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Badiiy bezash ishlarining kandy asosiy yunalishlari mavjud?
3. Maktabda badiiy bezash ishlarini takomillashtirishning kandy axamiyati bor?

A D A B I Y O T L A R:

1. Solovyev S.A. Shrift i dekorativnoye oformleniye.
2. Kodirxujayev K. Maktabda badiiy bezash ishlari.
3. Xvorostov A.S. Dekorativno-prikladnoye iskusstvo v shkole.

Mavzu: Badiiy bezash ishlarida kompozitsiya, rang va yoruglik roli.

R E J A :

1. Badiiy bezash ishlarida kompozitsiya.
2. kompozitsiya turlari. Frontal, xajmli, kenglik va chukurlik kompozitsiyalari.
3. Badiiy bezash ishlarida rang va yoruglik.
4. Xonalarni yoritilishi norma va koidalari.

Tayanch suzlar:

Kompozitsiya, frontal, xajm, chukurlik, vitraj, panno.

Badiiy bezak ishlarida kompozitsiya, rang va yoruglik roli.

Tasviriy san'atning barcha turlari kabi maktabdagi badiiy bezak ishlarida xam kompozitsiyaning umumiy konuniyatlaridan kelib chikib ish yuritiladi. Shuning uchun xam bu ishlar bezakchi rassomdan yetarlicha bilim va malkalarni talab markazida tutishni takozo etadi.

Kompozitsiya lotincha «Rompocitiye» - tuzish, joylashtirish ma'nosini beradi. Maktab badiiy bezash ishlarida kompozitsiyaning asosan uchta: 1 - tekis, 2 - xajmli, 3 - kenglik, chukurlikka ega bulgan turlari mavjud. Frontal kompozitsiya-bu ikki koordinatalari buyicha frontal tasvirni tashkil etishdir. Bunda kompozitsiya elementlari deyarli bitta-frontal tekislikda joylashadi. Kurgazmali stendlar, devoriy gazetalar, taklifnomalar, tabriknomalar, devordagi bezaklar, pannolar frontal kompozitsiya asosida bajariladi. Frontal fransuzcha «Frontale» - yassi, ruparadagi degan ma'noni anglatadi.

Xajmli kompozitsiya - turli kurish nuktalaridan idrok kilishga muljallangan uch ulchovi formada buladi. Bunda kompozitsiya elementlari uzaro uygunlashib, bir butun xajmini tashkil etadi. Shaklli xar xil pannolar, yodgorliklar, guldona kompozitsiyasi, monumental kompozitsiya va boshkalar bunga misol bula oladi.

Kenglik-chukurlik kompozitsiyasi-tomoshabin xarakatda bulgan vaktida idrok etishga muljallangan forma va elementning uygunligidir. Bunda kompozitsiya elemayentlari uygunligi fazoviy va masofaviy kurinish beradi. Interyerda tashkil etilgan kurgazmalar, koridorlarning bezalishi, yulaklar buylab tashkil kilingan kompozitsiyalar va boshka bunga misol bula oladi.

Kompozitsiya elementlari uzaro garmonik uynlikda bulib, bir birlarini tuldirib turishlari kerak. Kompozitsiya elementlari joylashishi ta'sir xususiyatiga kura kompozitsiyalar 3 xil buladi: 1 - statistik, 2 - ritmik, 3 - dinamik.

Statik kompozitsiyada elementlar joylashishi turgun, osoyishta kurinishga ega buladi. Elementlar piramidal yoki kub, parallilepiped kurinishida joylashadi.

Ritmik kompozitsiyada elementlar ma'lum ritm, takrorlanish kurinishida joylashadi. Bu kompozitsiya tekis xarakat xissini beradi.

Dinamik kompozitsiya kurilishi dinamik, shiddatli sxemalarga asoslanadi. Elementlar joylashishi portash, shiddat xissini beradi. Ba'zan keskin xarakat yunalishini kursatib turadi, ba'zan yukoriga usish, parvoz tassavurini beradi.

Kompozitsiya elementlari uzaro teng kuchli yoki birlari ikkinchisiga buysundirilgan bulishi, ya'ni asosiy va yordamchi elementlardan tashkil mumkin. Asosiy element kompozitsion markaz xisoblanib, boshka elementlarni uziga birlashtiriladi. Agar kompozitsiya elementlari bir birlariga nisbatan bir xil, joylashsa, ular kompozitsion muvozanatda buladi. Shunga kura kompozitsiya simmetrik yoki assimmetrik bulishi mumkin.

Maktab badiiy bezak ishlarida kompozitsiyaning kerakli turidan kerakli joyda foydalanish, kompozitsion muvozanatga rioya kilish muxim axpamiyatga ega.

RANG VA YORUGLIK

Maktabdagi badiiy bezak ishlariga uzviy boglik xolda karash lozim. Maktab interyerining ranggi va yoritilishi masalasida eng avvalo kurish kobiliyati uchun optimal sharoit yaratish talablaridan kelib chikish lozim. Yoruglik va ranglar dars samaradorligiga, kurish uchun kulaylik darajasiga, ukuvchilar va ukituvchilarning umumiy salomatligiga bevosita ta'sir kursatadi.

Odatda bolalar rangdan juda tez va kuchli ta'sirlanadilar. Tajriba sinf xonalarining tugri, funksional jixatdan ma'lum ranglarga buyalsa, ukuvchilarning ishlari yanada jonlanish va ukuv materiallarini yaxshirok uzlashtirishlarini kursatadi.

Maktabdagi xamma xonalarini ikki guruxga bulish mumkin:

A) ukuv xonalari:

B) dam olish xonalari (majlislar zali, vestibul, foyye, kurgazmalar zali)

Birinchi guruxda xonalarda kuzning nuri va e'tiborini bir yerga tuplab shugullaniladi. Bu xonalar oddiy, bir-biriga yakin och ranglar bilan buyaladi. Ikkinchi gruppadagi xonalar uz vazifasiga kura rang jixatdan ukuv xonalarining teskarisidir. Bunday xonalar rangdor, kuvnok, kontrast ranglarga buyalishi kerak.

Ranglar kompozitsiyalarning garmonik yaxlitligida xam aloxida axamiyat kasb etadi. Ayniksa, rang asosiy rol uynaydigan mozaik pannolarda, vitrajlarda kompozitsion garmoniyaga jiddiy e'tibor berish lozim. Shundagina asarning rang birligi estetik ta'sir etuvchi eng asosiy omillardan biri buladi. Rang xam xuddi kon yaratadi. Real xayotda rang shaklni tashkil etuvchi omil sifatida shakllanadi.

Maktab ish xonalarida-sinflar, laboratoriyalar, ustaxaonalar, kutubxonalar va umumiy kuzga xamda diqqatga zur keladigan joylarda yoruglik, yoritilganlikka

mexnatni yengillashtirish, kayfiyatni yaxshilash, charchashning oldini olish vosita sifatida karash kerak.

Interyerni yoritishda tabiiy yoruglik manбайдan tugri, okilona foydalanish ancha murakkab ishdır. Xonalarda yoruglik chap tomondan tushishi maksadga muvofikdir. Yoruglikda rangning nozik tomonlarini ilgab olish uchun kulay sharoit tugiladi. Xonalarning bir tekis yoritilishiga erishish lozim.

Yoritilish darajasi normadan kam bulsa kuz kiyonalib charchaydi, zurikadi. Yoritish manbaini notugri joylashtirish, kuzga nur tushishi yoki nur kaytishi xam shunday salbiy ta'sir kursatadi.

Interyerdagi bezak elementlari, stendlar, devoriy gazetalar va boshka bezash vositalarini ta'sirchanligi oshishida, ularning rang-barang kurinishida xam yoritilganlik muxim axamiyat kasb etadi.

Kompozitsiya (lotinchadan tarjimasi «joylashtirish», «asar», «kiyos» demakdir) figuralar, yuuyumlar rangli nuktalar va xajmli massalarning joylanish tartibidir.

Frontal kompozitsiya - bu ikki koodinatalari buyicha frontal tasvirni tashkil etish.

Xajmli kompozitsiya - turli kurish nuktalaridan idrok kilishga muljallangan uch ulchovli formada buladi.

Kenglik - chukurlik kompozitsiyasi - tamoshabin xarakatda bulgan vaktida idrok etishga muljallangan forma va elementning uygunligidir.

Vitraj - rangdor ishlardan yasalgan surat.

Panno - matoga ishlangan, keyin belgilangan joyiga yelimlab yopishtiriladigan manumental surat.

Nazorat savollari

1. Badiiy bezash ishlarida kompozitsiyaning kanday axamiyati bor?
2. Kompozitsiyaning kanday turlari mavjud?
3. Badiiy bezash ishlarida rang va yoruglikning kanday axamiyati bor?

A D A B I Y O T L A R:

1. Daragan M.V. «Основы декоративно-оформительского искусства».
2. Kodirxujayev K. «Maktabda badiiy bezash ishlari».
3. Solovyev S.A. «Dekorativnoye oformleniye».

Mavzu: Shriftlardan badiiy bezash ishlarida foydalanish shriftlar kompozitsiyasi.

R Y E J A :

1. Shriftlar xakida umumiy tushuncha. Shriftlar rivojlanishi.
2. Shrift turlari, stillari va garniturasini.
3. Shriftlar kompozitsiyasi.

Tayanch suzlar:

Grafika, simmetriya, kontrast, ton.

Shriftlardan badiiy bezash ishlarida foydalanish.

Shriftlar.

Maktabdagi badiiy bezash ishlariga kuyiladigan estetik talab ortib borayotgan xozirgi sharoitda ana shu ishlarning asosiy elementlaridan biri bulgan shrift san'ati yukori badiiy sifat darajasiga kutarilishi lozim.

Biz xarflar vositasida uz fikrimizni ifodalaymiz va uzgalar fikrini ukib olamiz. Bular e'lon, chakirik, devoriy gazeta va boshka kurgazmali agitatsiya vositalaridir. Bu ishlarni bajaruvchi shaxs shrift nazariyasini, yozish malakasini egallagan bulishi kerak.

Shriftning juda kup turi mavjud. Suzning grafik ifodaliligiga, shrift kompozitsiyasining ritmik tuzilishi, yaxlitligi bilan erishiladi. Shrift kurgazmali agitatsiya vositalaridan mavzuga boglik xolda kayfiyatni jushkinlik va xis tuyguni, chakirik va osoyishta eslatishni, yumor, satira va lirikani anik ifodalaydigan tasvirga ega bulishi kerak.

Shrift stillari va garniturasini insoniyat tarakkiyotining uzok va murakkab boskichi davomida yuzaga keldi. Jaxon yozuvida turt xil kurinishda tarixiy shakllangan shriftlar mavjud.

1. Piktografik (sur'at kurinishidagi) shrift dastlabki odamlar koya, toshlarga surat shaklida tushirgan yozuvlar.

2. Ideografik (iyeroglif tarzda)-eramizning dastlabki paytlarida savdo alokalari urnatilgan davlatlar (Misr, Xitoy) yozuvlar.

3. Buginli (bir yozuv belgisi-bugin) shrift-Xindistondagi ayrim xalklarning yozuvlari.

4. Xarfiy-tovushli (fonematik) shrift-tillarning fonematik tuzilishini aks ettiruvchi yozuv.

Xarflar va yozuvlar doimo takomillashib borgan va xozir bu jarayon davom etmokda. Xarflarning sifat xarakteristikasi bulmish belgilar kuyidagilardan iborat:

- A) xarf enining balandligiga nisbatan;
- B) xarflarning kalinligi;
- V) asosiy va birlashtiruvchi chiziklar nisbati;
- G) xarflarning tik yoki ogma bulishi;
- D) pastga, yukoriga chikadigan elementlarning xakteri va boshkalar.

Badiiy bezash ishlarida kuprok plakat shrifti kulaniladi. Uning afzalligi-yozish oson, tez va oson ukiladi. Ulardan chakiriklar yozishda, kurgazmali agitetsiyalarda, devoriy gazeta va e'lonlarda foydalaniladi.

Kursiv va yengil yozma usulidagi shriftlar xam maktablarda badiiy bezash ishlarida keng kulanilmokda. Kursiv shrifti asosida grafik ravonlik yetadi. Kursiv shriftlarning eng asosiy farklanuvchi belgisi «G» va «T» xarflarning shaklidir. Shuning evaziga kator variantlarda shrift katorlari jiddiy tUSDagi tirmik katorlar kurinadi.

Yozma xarflardan foydalanishda tekstning mazmuni e'tiborga olinadi. Bunday xarflar bilan turli bayramlarga, badiiy kechalarga taklifnomalar yoziladi. Shuningdek lirik temadagi kurgazmali agitatsiya vositalari xam bu shriftda bajarilishi mumkin.

Yozilgan tekstning ta'sirchan bulishida uni bajarayotgan rassom-bezovchining fantaziyasi xal kiluvchi axamiyatga ega. Aksariyat xollarda xarflar shaklan notugriligi, xarflar va chiziklar nisbatanining buzilishi yozuvning ta'sirchanligi yukolishiga, ukilishi kiyinlashishiga olib keladi.

Badiiy bezak ishlari buyicha amaliy kunikmalarni takomillashtirishning birinchi boskichida konstruktiv tuzilishi jixatdan sodda va bajarilishi kulay bulgan plakat shriftlarini urgatish maksadga muvofikdir. Yozish kunikmalarini xosil kilish uchun kataklardan foydalanish kulaydir.

SHRIFTLAR KOMPOZITSIYASI.

Maktablarda bajarilayotgan bezash ishlarida shriftlar kompozitsiyasiga katta e'tibor berish kerak. Shriftlar kompozitsiyasi turlicha buladi. Eng kup tarkalgani xarflarni simmetrik komponovka kilishdir, bunda katorlar markazdan ikki tomonda bir xil kenglikda yetadi. Asimmetrik komponovkalarda yozuvlarning kompozitsion muvozanatlariga katta e'tibor beriladi. Shriftlar kompozitsiyasida katorlar orasidagi masofa xam muxim rol uynaydi. Bu masofaning juda kam yoki kup bulishi ukishni kiyinlashtiradi.

Murakkab kompozitsiyalardagi katorlarning ritmi turli tuman buladi. Bunday kompozitsiyalarda ma'no va mazmun jixatdan birinchi tuldiruvi suzlarni imkon kadar bir katorga joylashtirdi. Chunki inson kurish organi bir katordan ikkinchi katorga utishda ma'lum fursat tuxtataydi. Shuning uchun suzlarni joylashtirishda ularning ma'no jixatdan boglanishiga erishish talab etiladi. Tekstlarni yozishda ularni oldin yaxshilab ukib uylab olish kerak. Tekstdagi asosiy goyani shriftlarning kontrasti, rangi, garniturasini va ulchamlarini katta kichikligiga karab ochib beriladi.

Shriftlar kompozitsiyasini bajarilayotgan ishning mazmuniga karab kurgazmali agitatsiya vositasining umumiy kompozitsion elementlari bilan yaxlitlikda uygunlikda amalga oshirish kerak buladi. Aks xolda shrift kurgazmali vositaning ta'sirchanligi oshishiga yordam beraolmay kolishi mumkin.

Grafika san'ati - tasviriy san'atning bir necha turlarini uz ichiga oladi, u kora va ok rang bilan cheklangan.

Simmetriya - yaxlit tenglik ma'nosini bildirib, markazdan ikkala tomonning bir xilligini aks ettiradi.

Kontrast - ranglar va tonlarning bir biriga karama karshiligining aks ettirilishi.

Ton - xar bir rangning koradan yoruggacha bulgan chegarasidagi farki.

Nazorat savolari:

1. Jaxon yozuvida nechta xil kurinishdagi tarixiy shakllangan shriftlar mavjud?
2. Xarflarning sifat xarakteristikasi bulmish belgilar nimalardan iborat?
3. Badiiy bezash ishlarida shriftlarning kanday axamiyati bor?

A D A B I Y O T L A R:

1. Daragan M.V. «Основы декоративно-оформительского искусства».
2. Kodirxujayev K. «Maktabda badiiy bezash ishlari» (Toshkent,1991 y).
3. Solovyev S.A. «Dekorativno-oformleniye».
4. Ponomaryev S.I «Dekorativno-oformitelskoye iskusstvo v shkole».
5. Solovyev S.A. «Shrift i dekorativnoye oformleniye»
6. Smirnov S.I. «Shrift i shriftovoy plakat»
7. Doryabin A.S. «Художественные шрифты»

**Mavzu: Maktabda badiiy bezash ishlarini tashkil qilish
va amalga oshirish.**

R YE J A :

1. Badiiy bezash ishlarini tashkil qilish.
2. Bezash ishlarida foydalaniladigan asbob va uskunalar, materiallar.
3. Buyoklar. Ular bilan ishlash koidalari.
4. Badiiy bezash dekorativ gullardan foydalanish.

Tayanch suzlar:

Ranglar spektri, Axromatik rang, xromatik rang, akvarel, aerograf.

**MAKTABDA BADIY ISHLARINI BEZASH ISHLARINI TASHKIL KILISH
VA AMALGA OSHIRISH**

Maktabda amalda oshiriladigan badiiy bezash ishlariga tarbiyaviy tadbirlarning ajralmas kismi deb karash lozim. Maktabdagi mavjud badiiy bezash elementlari dekorativ panno, sinf xonalaridagi mebellarning shakllari, devorlarning ranggi, bularning xammasi bolalarning psixologiyasiga ma'lum darajada ta'sir kursatadi. Maktabda badiiy bezash ishlarini tashkil qilishda bezash ishlrida foydalaniladigan asbob uskuna va materiallarni taxt qilish birlamchi vazifalardan xisoblanadi.

**BEZASH ISHLARIDA FOYDALANILADIGAN ASBOB-USKUNA VA
MATERIALLAR.**

Badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan ish kurollari va materiallarning ayrimlari xakida suz yuritamiz: - kalam (xar-xil yumshok va kattik turlari): Kogoz (V-yukori sifatli kogoz, F-tush va guash bilan ishlashga muljallangan kogoz, A-suv buyoklar bilan muljallangan kogoz, 0-ommaviy ishlar uchun tayyorlangan kogoz): uchirgan (yumshok va kattik uchirgichlar): pero (plakat perolar, radio pero, xar xil kattalikdagi komplektlangan); Buyoklar (akvarel, guash, moybuyok, emulsiya buyok, tempera buyoklar); Muykalamlar (xar xil muyli, dumalok, oval, yapalok shakldagi, xar xil kattalikdagi muykalamlar). Boshka materiallar (xar xil yelimlar, pichoklar, chizgichlar, penoplast, fanera, yogoch va temir materiallari, xar xil idishlar, lak va eritgichlar, shisha va kurilish materiallari).

Xar xil e'lon, devoriy gazeta, tezkor plakatlar odatda kogozga ishlanadi. Bunday ishlarda vatman kogozi (24 format, A2) yoki maxsus papkada (12 format A3) chizma kogozlaridan foydalanishi mumkin. Uchirgichning yumshok turi kalamda yozilgan, kattigi tush bilan yozilgan yozuvlarni uchirishda ishlatiladi. Uchirgich yumshok bulishi uchun ishlashda, tush, akvarel yoki guashdan, shuningdek flomaster, sangina kabi

vositalardan foydalaniladi. Yozuvlar perolar yoki muykalam xamda shisha naylar yordamida bajariladi. Shuningdek aerografik (trafaret yordamida) ishlov berish xam mumkin. Yozisha tushlarning xar xil turidan foydalaniladi. Tush bilan ishlaganda kuyilib kolgan bulsa suyiltiriladi. Yozganda suyilib ketsa ozgina shakar kushiladi. Guash bilan fon berilgan yuzaga tush bilan yozilsa, kuchib ketadi. Shuning uchun kalam, akvayerl, tush bilan fon berilgan kogozga yozish tavsiya kilinadi.

Faner, matolar, yogoch yoki temir yuzalarga (metall) ishlashda guash, moybuyok, tempera buyoklardan, shuningdek akvareldan xam foydalanish mumkin. Lekin bunday yuzalar ishlov berishdan oldin ishlatiladigan buyok turiga karab gruntovka kilinishi lozim. Matoga yozishda emulsion buyoklardan foydalanish kulay. Bund mato ramkaga tortiladi.

Gruntlangan matoga yozish oson buladi, xatto peroda xam yozish mumkin. Fanera va metal yuzaga xam shu usulda emulsion buyoklar bilan mumkin. Moybuyok bilan yozishda gruntovka xam mos ravishda bajarilgan bulishi lozim. Gruntovka emulsiya va PVA yelimi aralashmasi yoki maxsus aralashma bilan kilinadi.

Asbob-uskuna va materiallardan foydalanish usullari, ish kurollaridan samarali foydalanish ulardan tugri foydalanishi bilan boglikdir. Yozuvlarni yozishda perolardan kerakli joylarda foydalanish ish tugagach ularni tozalab kuyishi shart. Kerakli ulchami pero topilmay kolganda peroni kulbola kilib, kattik yogochdan yasab olish mumkin. Bunday pero ishlatishdan oldin bir necha dakika tushga solib kuyiladi.

Buyoklar bilan ishlaganda muykalamdan foydalaniladi. Akvarel bilan ishlashda yumshok muykalam ishlatiladi. Guash va moybuyok bilan ishlashda dagal muykalam ishlatiladi. Shakli kupincha yapalok shaklda. Muykalamlar ishlatib bulingach, (moybuyok maxsus eritmada, emulsiyalar suvda) yaxshilab tozalab, sovun bilan yuvib kuyiladi. Katta yuzalarni gruntlashda frets chutkalar yoki valiklardan foydalaniladi. Yapalok muykalamlar № 1 dan № 80 gacha, yumshok muykalamlar № 1 dan № 13 gacha bulib, dasta uzunligi 270-500 mm buladi.

Bezash ishlarida yozuvlar tekis, sifatli chikishi uchun trafaretlardan keng foydalaniladi. Trafaret sellulion yoki turli shaffof plastinkalardan tayyorlanadi. Yuzaga trafaret yordamida yozuv tushishda muykalam, gubka yoki aerografik usuldan foydalanish mumkin.

Trafaret bilan ishlangan trafaret yuzaga bosib turilishi kerak. Trafaretni oddiy chizma kogozidan xam tayyorlash mumkin. Uzoq muddat ishlatish uchun bir tomoni alif yoki lak bilan koplanadi.

Badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan xajmi xarflarni tayyorlash uchun penoplast juda kulaydir.

Penoplastdan turli ulchamdagi xarflarni tayyorlash mumkin. Penoplastdan xarflar tayyorlashda maxsus elektr kurilmadan foydalanadilar.

Kurilma yordamida plastinkalar (penoplastdek) tayyorlanib, ulardan utkir skalpel yoki lezviye bilan xarflar kirkiladi.

Katta stendlar nomlarini yozishda metall, yogoch va gips xarflardan xam foydalanish kulay. Bunday yozuvlar stendni salobatli kursatadi. Xarflarni stendlarga «Moment», «Epoksid» supersement va № 88 yelimi bilan yopishtiriladi.

Maktab bezak ishlarida dekorativ usimliklar va dekorativ-amaliy san'at namunalaridan keng foydalaniladi. Bino interyerini bezashda ishlatiladigan dekorativ gullar turli tuman bulib bezash ishlarida salmokli urin tutadi.

Apargul-nozik, kuksimon yashil tusli, bir oz korangirok joyda usishga moyildir.

Begoniya-yorkin rangli, yirik yaprokli usimlik, kuprok yoruglik talab etadi.

Glokseniya-baxmalsimon yirik yaprokli, katta kungiroksimon chiroyli gullaydi, yoruglikni sevadi.

Xitoy atirguli-tuk yashil bargli, butasimon, yirik kizil va pushti rangda gullaydi.

Estetik talablar orasida rassomning interyerining ayrim joylari uchun usimliklar usish komponentlarini, ularning ayni shu joyda mosligini tugri tanlay olish muxim rol uynaydi.

Ranlar spektri - yoruglikning maxsus shaffof uchburchak shishadan sinib utishi natijasida xosil bulgan ranglar yigindisi.

Axromatik ranglar - kora va shunga yakin ranglardan okkacha bulgan ranglar.

Xromatik ranglar - ranglar spektridagi turli ranglar.

Akvarel - suv bilan eritib ishlanadigan asal kushilgan maxsus buyok.

Aerograf - ranglarni mayin sepishga muljallangan moslama.

Nazorat savollari:

1. Badiiy bezash ishlarida kaday asbob va uskunalardan foydalaniladi?
2. Badiiy bezash ishlari kaday tashkil kilinadi?
3. Badiiy bezash kaday dekorativ buyumlardan foydalaniladi?

Mavzu: MAKTAB INTERYERI VA EKSTERYERINI BEZASH.

R Y E J A :

1. Interier va fasadli buyashga kuyiladigan talablar.
2. Interierdagi badiiy bezaklar.
3. Badiiy-bezash ishlarida dekorativ san'at va monumental kompozitsiyalar roli.
4. Bayram bezaklar. Kurgazmalar tashkil etish.

Tayanch suzlar:

Interier, Ekstier, Xaykaltaroshlik, issik rang, sovuk rang.

INTERIER VA FASADLARNI BUYASHGA KUYILADIGAN TALABLAR.

Maktab binosini devorlarini buyash ranglar turli yoshdagi ukuvchilarga turlicha ta'sir etishini xisobga oli amalga oshiriladi. Maktab devorlarini buyashda ranglar uz urnida kullash, ularning psixologik ta'siriga aloxida e'tibor berish lozim. Ranglarning uz urnida kullinishi maktabdagi ta'lim tarbiya ishlari sifatini oshirishga karatilgan bulsa, psixologik ta'sirchanlik xam sinfda ukuvchi uchun maishiy va ma'naviy kulaylik yarata olish kerak. Sinf xonalarini buyashda ranglarning yoruglik kaytarish xususiyatlarini nazarda tutish lozim. Maktab devorlarini buyashda kulliniladigan asosiy ranglarning yoruglik kaytarish xususiyati kuyidagicha:

Ok - 85%, och sarik - 75%, och yashil - 65%, och kuk - 65%,

Kul rang - 55%, yashil - 52%, xavo rang - 35%, kizil - 13 %.

Sinf xonalarini buyashda deraza karshisidagi devor ranggini yoruglik kaytarish koeffitsenti - 60 %, doska urnatilgan devor - 50 %, deraza urnatilgan devor - 70 %, poli esa - 30 % bulishi optimal xisoblanadi, xona shifri ok rangga buyaladi.

Ranglarning issik sovuklik xususiyatlarini tugri kullagan xolda devorlarni buyash muxim axamiyat kasb etadi. Iklim issikligini nazarda tutgan xolda kuprok sovuk ranglardan foydalanish maksadga muvofikdir. Bu ranglar xonadagi xaroratni «psixologik» pasaytirish xususiyatiga ega.

Tabiiy yoruglik tushishini xisobga olgan xolda shimol, shimoli-shark, shim-garb tomonlarda derazasi bor xonalar ilik ranglar gammasiga, janub, janubiy-shakr, janubiy-

garb tomonlarda oynasi bor xonalar sovuk ranglar gammasiga, buyash tavsiya etiladi. Kichik maktab yoshidagi ukuvchilar uchun muljallangan xonalarni turli ranglarga buyash mumkin, chunki ular zerikarli ranglarga buyalgan xonada tez tolikib koladilar.

Xarakatli dam olish uchun muljallangan xona va xoridorlar tuyinchokrok ranglarga buyaladi. Sinf xonalari esa och, xotirjam ranglarga buyalsa xonalarning yoritilganlik darajasi oshadi.

Ranglar spektoridagi sargish-yashil rang kuzni kamrok charchatadi. Bu ranglar asab sistemalariga nisbatan kamrok ta'sir kursatadi.

Xaykaltaroshlik turida turli xil materiallar sement, gips, gil va boshkalar ishlatiladi. Bu materiallar bilan ishlashda ularning funksional, ximiyaviy-fizik xususiyatlari bilan tanish bulish talab etiladi.

Maktabni bayramona bezatilishida uning atrofiga, tashki kurinishi va ichki xonalari, ayniksa majlislar zaliga maxsus zeb berish ishlari bajariladi. Bunda odatdagi bezatishdan farki-dekorativ elementlar mazmuni bayramona ruxda bulishi kerak. Maktab binosining tashki kiyofasi uning bayram kunlaridagi birinchi tantanavor nuqtasidir. Binoni bezashda uning odamlar kuziga kuprok tashlanadigan tomonini nazarda tutishi kerak. Bezashda plakatlar bayroklar, lozunglar va boshka bezash vositalaridan foydalaniladi.

Bino ichkarisi bezashda bayram ruxiga mos bulgan bezak elementlari (chakirikla, tabriklar, devoriy gazetalar, xar xil plakatlar, shar, gul, yaltirok materiallar va boshkalar) kullaniladi. Bezash ishlarining umumiy maksadi shodlik, kuvnoklik kabi bayramona ruxni ifodalashga karatilgan bulishi kerak.

Maktablarda tashkil etiladigan kurgazmalar tematikasi xar xil bulishi kerak. Tashkil etish turt boskichda:

1. kurgazma temasini aniklash.
2. mavzuli -ekspozitsion reja tuzish.
3. eksponatlar yigish.
4. kurgazma uchun kulay joy tanlash.

Kurgazmalar rekreatsiyalarda, koridorlarda, zalda va boshka joylarda tashkil etilishi mumkin. Bundan tashkari doimiy kurgazmalar joyi tashkil etish xam mumkin. Kurgazmada kullaniladigan bezash vositalari uning tematikasiga mos, uni mazmuni tuldiriluvchi xarakterda bulishi lozim. Kurgazma elementlari, stendlari umumiy kompozitsion xosil kilishligi muxim axamiyatga ega. Stendlarni kurishni kulayligini ta'minlashda ukuvchilar buylari xam xisobga olinadi.

Kurgazma kurish (uning boshlanishi) ta'sirli, dikkatni jalb etadigan tantanavor kilib bezaladi. Ekspozitsiyalar kurinishligi yoritilganligi xisobga olinadi.

Ukuvchilar xonasi, direktor xonasi va boshka xonalar funksional xususiyatlaridan kelib chikib jixozlanadi.

Majlislar va tantanalar zalini bezatishda bezovchi rassom maxorati ayniksa muxim rol uynaydi. Majlislar zali funksional vazifa jixatdan keng kamrovi, ya'ni turli

tadbirlar (yigilishlar, kechalar, kinofilm-teatr namoyishi, ritmik ginastika mashgulotlari) utkazishga muljallangan bulishi uni jixozlashga aloxida e'tibor berishni talab etadi. Zaldagi bezash elementlari ikki xil doimiy va vaktinchalik buladi. Vaktinchalik bezak elementlari utkaziladigan tadbirlar moxiyatiga va tematikasiga karab uzgartirilib turiladi. zalni bezashda ishlatiladigan elementlar xajmlilikni ta'minlanishi lozim. Bezak elementlari ta'sirchan tantanavor, original kurinishida bulishi kerak. Ma'lum bir tadbirga bagishlangan bezak elementlari anik bir maksadga, utkazilayotgan tadbirga karatilgan bulib, uning moxiyatini tulakonli ochib berishga kilmogi lozim.

BEZASH ISHLARIDA DEKORATIV SAN'AT VA MONUMENTAL KOMPOZITSIYALAR ROLI

Dekorativ san'at namunalarining diqqatga sazovor xususiyati davr va sharoitning obrazli mazmunini dinamik tarzda uzgartira olishdir. Masalan kuchalarning bayramona bezatilishi ularning odatdagi kiyofasini ma'lum vaktgacha uzgartirib turadi. Maktab bezak ishlarida dekorativ san'at namunalari roli ayniksa, muximdir. Maktab interyerini bezashda dekorativ amaliy san'at namunalaridan (ganch, yogoch uymakorligi, nakkoshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshkalar) keng foydalaniladi. Bunda badiiy bezash vositasi boshka bezash elementlari bilan garmonik boglanishda bulishi lozim.

Maktablarning interyer va eksteryerlarini bezashda monumentlar san'at vositalaridan foydalaniladi. Monumentlar shakllarini shartli ravishda kuyidagilarga bulish mumkin: grafik (monum, panno, plakat); tasviriy-bezak (freska, mozaika, vitraj); xaykaltaroshlik (barelyef, byust, xaykallar).

Grafik turda bino ichkarisi va tashkarisiga urnatiladigan memorial taxta, pannolar bajarilishi mumkin. Bu ishlarda material sifatida metall, yogoch, plstik materiallar va x.k. lar ishlatiladi.

Dekorativ-bezak sanati turida asosan dekorativ kilib bajariladigan bezak namunalari ishlanadi. Mozaika ishlashda maydalangan rangli tosh, shisha, sopol, oyna, yogoch, chiganok, danak, yongok puchogi, poxol va boshkalardan foydalaniladi, vitraj ishlashda oynaga ishlanadigan buyoklar yoki maxsus rangli shishalardan foydalaniladi.

Ranglar spektridagi sargish-yashil rang kuzni kamrok chartadai. Bu ranglar asab sistemalariga nisbatan kamrok ta'sir etib, tomirlarga kontuplanishini ta'minlaydi. Eshitish kobiliyatini oshiradi.

INTERYERDAGI BADIY BEZAKLAR.

Maktab interyeridagi xar bir detal uzi bajaradigan vazifasiga kursa jixozlanadi. Ukuvchilar maktabga vestibyuldan kirib kelar ekanlar, shu yerdan ularning xarakat grafigi boshlanadi.

Shuning uchun xam vestibyulda bayramona, tantanavor muxit kenglik va yoruglik ta'minlanishi kerak.

Vestibyl bezashda umummaktab xarakteridagi kurgazmali agitatsiya va axborot materiallari bulishi maksadga muvofikdir.

Vestibylulda «Dars jadvali», «A'lochilar» stendi, maktab nomi va faoliyati bilan boglik kugazmali stendlar, «E'lonlar» taxtalari, xarakat sxemasi va boshka bezash vositalari bulishi mumkin. Vestibylulda maktabning uziga xos yakin oradagi boshka maktablardan farkli xususiyatlarini tugri ifodalash muxim axamiyatga egadir. Ayni paytda vestibylulni tashki muxit bilan boglanishini xisobga olib unda yashil burchaklar tashkil kilish maksadga muvofikdir. Sifxonalarni maktab interyerning eng asosiy kismidir. Sinf xonalarini jixozlash unda shugullanadigan ukuvchilar yoshlariga muvofik bajariladi. Sinfda asosiy yozuv doskasidan tashkari xonaning orka tomoniga sinf devoriy gazetasi, ukuv kullanmalari, navbatchilik grafigi, ukuvchilarning ishlaridan namunalar va xokazolar joylashtirish, ularning ranggi va formasi bir-biriga mos bulishi lozim.

Maktablardagi asosiy fan kabinetlari uziga xos xususiyatlari e'tiborga olibj jixozlanadi. Kurgazmali materiallar va jixozlar ukitiladigan fanga mos ravishda tanlanadi. Fan kabinetlarini jixozlashda texnik vositalaridan keng foydalaniladi. Stol, stul va jixozlarni joylashtirishda normativ talablarga rioya kilinadi. Stol, stul va mebellar fan kabinetlarida maxsus chizma stollari, kataklarga bulingan doska, chizma asboblari shkafi bulishi, rasm va tasviriy san'at kabinetlari, malbertlar, maxsus kutarilib tushadigan stullar, natura urnatilgan tagliklar, reflektor (lampa) rakovina va xakozolar bulishi tavsiya etiladi.

Eksteryer - biror bino, inshootlarning tashki tomondan kurinishi.

Xaykaltaroshlik - turli xil materiallar, sement, gips, gil va boshkalar yordamida xar xil buyumlar narsalar yasash.

Issik rang - kizil, sarik, zargaldok va shunga yakin ranglar.

Sovuk rang - kuk, yashil va shunga yakin ranglar.

Nazorat savollari:

1. Interyer va fasadni buyashga kanday talablar kuyiladi?
2. Badiiy bezash ishlarida dekorativ san'at va monumental kompozitsiyalarning roli kanday?
3. Kurgazmalar kanday tashkillashtiriladi?

A D A B I YO T L A R:

- 1.Solovyev S.A. Shrift i dekorativnoye oformleniye.
- 2.Xvorostov A.S. Dekorativno-prikladnoye iskusstvo v shkole.
- 3.Daragan M.V. «Основы декоративно-оформительского искусства».
- 4.Solovyev S.A. «Декоративное оформление».
- 5.Kodirxujayev K. «Maktabda badiiy bezash ishlari» (Toshkent,1991 y).
- 6.Ponomaryev S.I «Декоративно-оформительское искусство в школе».
- 7.Smirnov S.I. «Шrift i shriftovoy plakat»
8. 8. Daragan M.V. «Основы декоративно-оформительского искусства».
9. Kodirxujayev K. «Maktabda badiiy bezash ishlari» (Toshkent,1991 y).
- 10.Solovyev S.A. «Декоративно-оформление».
- 11.Ponomaryev S.I «Декоративно-оформительское искусство в школе».

**UZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA URTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat Universiteti

Badiiy bezak san'ati asoslari
fanidan uslubiy qo'llanma

«Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi» yunalishi uchun

Tuzuvchi: **Xaitboyev D.J**

Buyurtma_____

Format _____

Tiraj_____nusxa.

Bosishga ruxsat etildi_____

Xajmi _____ b.t

URGANCH - 2005 yil.

